

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN KASB KASALLIKLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kasb kasalliklari fani talabgorlarning bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kasb kasalliklari

1. Umumiy bo‘lim.
2. Xususiy bo‘lim.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Umumiy bo‘lim	Kasb kasalliklari fani va uning vazifalarini, kasb kasalliklari fani rivojlanishining qisqacha tarixini, kasb kasalliklarining tasnifi, diagnostikasi va davolashning umumiy tamoyillari, kasb kasalliklarida tibbiy deontologiya asoslarini bilishi va amaliyotda qo‘llay oladi. Kasb kasalliklarida vrachlik mehnat ekspertizasi, kasb kasalliklarining asosiy profilaktik tamoyillari haqida tahlil qila vaziyatlarni tahlil qila oladi .	27.5 %	11 ta
2	Xususiy bo‘lim	Ishlab chiqarish changi, pnevmokoniozlar. va ular haqida, changli bronxiti, kasbiy allergik kasalliklarni, terining kasbiy kasalliklarini, fizik omillar ta’sirida kelib chiqadigan kasb kasalliklarini, shovqinning odam organizmiga ta’sirini biladi va qo‘llay oladi. Infratovushning odam organizmiga ta’sirini, qo‘rg‘oshin va uning noorganik birikmalaridan zaharlanishini, simob va uning noorganik birikmalaridan zaharlanishini, marganesdan surunkali zaharlanishini, uglerod sulfiddan zaharlanishni, uglerod oksididan zaharlanishni, organik erituvchilardan zaharlanishni, nafas olish organlarining toksik - kimyoviy moddalar ta’siridan zararlanishi, qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan pestitsidlardan (o‘tkir va surunkali) zaharlanishi, jismoniy zo‘riqish ta’sirida kelib chiqadigan kasbiy kasalliklarni, kasbiy onkologik kasalliklar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.	72.5 %	29 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko‘nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma’lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	15 %
2.	Qo‘llash	O‘zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta’limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	70 %

3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog‘liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %
----	------------------------	---	------

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To‘rtta variantdan bittasi to‘g‘ri bo‘lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to‘g‘rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Kasb kasalliklari Mahmudova Sh.K. Kasb kasalliklari / Tibbiyot Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. - T.: «Yangi asr avlodi»
2. Z.T.Qozoqova, R.U.Muhitdinov. Mehnat gigiyenasi va kasb kasalliklari. Toshkent -ILM-ZIYO 2007 yil. 9-bob